

O'BEKISTONDA YURIDIK SHAXSLAR FOYDASINI SOLIQQA TORTISHNING JAHON TAJRIBASI

Babaxonov Ja'far Muhiddinovich

**Qarshi davlat texnika universiteti “Moliya va bank ishi” kafedrası
dotsenti**

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuridik shaxslar foyda solig'ini undirishda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish sohasidagi xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganildi va ushbu tajribani O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: foyda, investitsiyalar, xarajatlar, imtiyozlar, realizatsiya, transformatsiya.

Аннотация: В данной статье изучен опыт зарубежных стран в области совершенствования налогового администрирования при сборе налога на прибыль организаций и проанализированы возможности применения этого опыта в Узбекистане.

Ключевые слова: прибыль, инвестиции, затраты, выгода, реализация, преобразование.

Annotation: In this thesis, the experience of foreign countries in the field of improving the tax administration in the collection of profit tax of legal entities was studied and the possibilities of applying this experience in Uzbekistan were analyzed.

Key words: profit, investment, cost, benefit, realization, transformation.

Kirish.

Foydani soliqqa tortish bo'yicha xorijiy tajribani miqdoriy va sifat mezonlari bo'yicha qiyosiy tahlil qilish O'zbekiston soliq siyosatida muhim hisoblanadi va foydani soliqqa tortishni takomillashtirishning bir qator yo'nalishlarini aniqlashga kerakki, O'zbekiston soliq tizimi ma'lum darajada boshqa mamlakatlarning soliqqa tortish tizimlarining hosilasi bo'lib, bu quyidagi umumiy fikrlar mavjudligi bilan tasdiqlanadi: - O'zbekistonda 15% foyda solig'i stavkasi o'rtacha Yevropa darajasiga (27%) solishtirish mumkin – foyda solig'i bazasi barcha manbalardan



olinadigan yalpi daromad va belgilangan ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi farq soliqa tortiladigan daromadlarni hisoblashda har xil turdagi soliq imtiyozlarining mavjudligi, shu jumladan, o'xshash turdagi imtiyozlar.

Hozirgi davrda O'zbekistonning dunyo hamjamiyatiga chiqishi tezlashganligi jarayonida moliyaviy hisobotlarni tuzish va etkazib berish jarayonini xalqaro talablarga muvofiqlashtirish majburiyatini keltirib chiqarmoqda. Shuningdek, uning nazariy- huquqiy asoslarini moslash, chet-ellik investorlar talabiga javob beradigan hisobotlarni tuzish vazifasini qo'yadi.

Xorijiy mamlakatlarda va O'zbekistonda foyda solig'ini tartibga solish vositalarini sifat va miqdoriy mezonlar bo'yicha qiyosiy tahlil qilish uchun har bir mamlakatning soliq tizimi va ularning asosiy soliq vositalarini ko'rib chiqish zarur. Soliq mezonlari bo'yicha soliq tizimining progressivligida soliqlarning daromadlarga muvofiq soliq to'lovchilar o'rtasida qanday taqsimlanishini o'rganadi. Xorijiy mamlakatlarda progressiv soliqa tortish tizimi tez-tez qo'llaniladi, unda daromad oshishi bilan soliq stavkasi oshadi. O'zbekistonda ham progressiv soliqa tortish bor.

Adabiyotlar sharhi

Tahlilchi J.Mintz “foyda solig'i bo'yicha bir qator fikrlar ega bo'lib, unda foyda solig'i stavkasini pasaytirish bo'yicha J.Mintz iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun korxonalariga soliq yukini kamaytirishni qo'llab-quvvatlaydi. Uning fikricha, foyda solig'ining pastligi kompaniyalarni sarmoya kiritishga, yangi ish o'rinlari yaratishga va samaradorlikni oshirishga undashi mumkin. Soliq tizimini soddalashtirish bo'yicha J.Mintz soliq tizimini yanada shaffof va tushunarli qilish uchun soddalashtirishni yoqlaydi.”[1]

Rus olimi Y.B.Shuvalovning fikriga ko'ra, foyda solig'i ma'muriyatchiligi bo'yicha “ soliq hisobining har qanday tartibi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha soliq solinadigan bazani shakllantirish uchun ma'lumotlar tizimlashtirilgan buxgalteriya registrlariga asoslanadi. Buxgalteriya hisobi va soliq hisobi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar birinchi navbatda buxgalteriya hisobining ikki turi parallel ravishda tashkil etilganda paydo bo'ladi. Olimning fikricha, kichik biznes sub'ektlari uchun, buxgalteriya hisobi tizimi va soliq hisobi tizimini imkon qadar yaqinlashtirish kerakligi to'g'risidagi fikrlarni ilgari surgan.” [2]



Tahlil va natijalar.

Singapurda foyda solig‘i kompaniyaning moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotining foyda solig‘i solingunga qadar foyda ko‘rsatkichiga tuzatishlar kiritish orqali hisoblab chiqiladi. Foyda solig‘i stavkasi 2010 yildan boshlab 17%ni tashkil qiladi. Ungacha 18% bo‘lgan. Singapur foyda solig‘i bir pog‘onali hisoblanadi, ya‘ni rezident kompaniyalar uchun foyda solig‘i to‘langandan so‘ng dividend uchun soliq undirilmaydi. Singapur davlatida foyda solig‘i hisoblashning umumiy mexanizmini ko‘rib chiqamiz. Foyda solig‘i hisoboti quyidagi ko‘rsatkichlardan iborat bo‘ladi:

Foyda solig‘i solingunga qadar foyda.

Bu ko‘rsatkich kompaniyaning moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotiga asoslanadi.

Soliq solinmaydigan daromadlar

Umumiy holda daromadlar ikkiga bo‘linadi. Kapital daromadlar va tushumga oid daromadlar. Masalan, asosiy vositani sotilishidan daromad, valyuta pul mablag‘ini kurs farqidan daromad, majburiyatni hisobdan chiqarishdan daromadlar kapital daromad hisoblanadi va soliqqa tortilmaydi. Tushumga oid daromadlar tovarlar va xizmatlarni realizatsiya qilishga oid daromatlarni o‘zi ichiga oladi va soliqqa tortiladi. Bundan tashqari, rezident kompaniyaning chet elda olingan lekin Singapurga olib kelinmagan daromadlariga ham soliq solinmaydi.

Faoliyatga oid bo‘lmagan daromadlar.

Bunday daromadlarga asosan banklardan olinadigan foizlar ko‘rinishidagi daromadlar, dividendlar, ijaradan daromadlar va royalti ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Bu kabi daromadlar soliq solinadigan bazaga hisobot oxirida qayta qo‘shiladi.

Xarajatlar chegirilishining asosiy shartlari bo‘lib xarajatning faqat daromad olish maqsadida amalga oshirilgan bo‘lishi, xarajatlar shartli majburiyatlar natijasida kelib chiqmagan bo‘lishi (ya‘ni rezerv emas), xarajat kapital xarakterga emas, tushum xarakteriga ega bo‘lishi va Soliq aktida chegirilishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri man qilinmagan bo‘lishi lozim. Aks holda chegirilmaydi.

Kapital ajratmalar.



Kapital ajratmaning ma'nosi soliq maqsadlarida hisoblangan amortizatsiyani bildiradi. Buxgalteriya hisobidagi amortizatsiya yuqoridagi chegirilmaydigan xarajat sifatida bazaga qo'shilsa, bu erda soliq maqsadlari uchun hisoblangan kapital ajratmalar soliq bazadan chegiriladi.

O'tgan yillar soliq zararlari.

O'tgan davrlarda faoliyat natijasi bo'yicha soliq zararlari yuzaga kelgan taqdirda ushbu zararlar joriy davr soliq bazasini kamaytirish uchun foydalanilishi mumkin.

Xayriya sarflari bo'yicha chegirma

Xayriya sarflari chegirilmaydigan xarajat sifatida soliq bazasiga qayta qo'shilishiga qaramay mazkur bandga kelib xayriya xarajatlari 2.5 ga ko'paytirilgan holda chegirma beriladi. Buning uchun xayriya ijtimoiy xarakterdagi tashkilotga tegishli shaklda o'tkazilgan bo'lishi lozim.

Soliq imtiyozlari

Soliq bazasini kamaytirishi mumkin bo'lgan ikki xil imtiyoz mavjud. Qisman soliqdan ozod qilish va yangi startaplar uchun imtiyoz.

Soliq solish bazasi (Foyda solig'i solingunga qadar foyda - Soliq solinmaydigan daromadlar - Faoliyatga oid bo'lmagan daromadlar + Chegirilmaydigan xarajatlari - Kapital ajratmalar - O'tgan yillar soliq zararlari - Xayriya sarflari bo'yicha chegirma - Soliq imtiyozlari) * Soliq stavkasi (17%) = Soliq summasi.

Kapital daromad va tushumga oid daromadni farqlash uchun ularning predmeti bo'lgan mulk sotilishini savdo sifatida qarash yoki qaramaslik uchun 6 ta alomat belgilangan.

Birinchi alomat. Realizatsiya predmeti. Ba'zi mulklardan asosan qayta sotish uchun foydalaniladi va undan shaxsiy maqsadlar uchun kamdan kam hollarda foydalaniladi. Masalan, pandemiya paytida bir savdo kompaniyasi 200 mingta niqob sotib olgan. Mazkur niqoblarni o'z ehtiyojiga olganligini ko'rsatib berishi qiyin bo'lishi mumkin. Chunki, bu kompaniya xodimlari har kun bittadan yangi niqob taqsa ham 10 yilga etadigan niqob sotib olingan.

Ikkinchi alomat. Egaliq qilingan davr. Mulkka qanchalik uzoq egalik qilinsa, uni sotish uchun olinganligi ehtimoli shuncha kam bo'ladi. Masalan, aksiyalarni



uzoq muddat ushlab turgandan so‘ng sotilishi bu kompaniya uchun kapital daromadni yuzaga keltiradi va soliqqa tortilmaydi.

Uchinchi alomat. Operatsiyalar soni. Bir xil mulkka oid sotish operatsiyasini muntazam amalga oshirilishi uni tushumga oid operatsiya sifatida qaralishiga sabab bo‘ladi. Masalan, kompaniya avtomobillarni import qilgan holda o‘z ehtiyojlari uchun odatda 6-12 oy davomida foydalanadi va odatda hisobdan chiqaradi. Bunday muntazamlilik ushbu operatsiyalarni tushumga oid daromad sifatida qarashga sabab bo‘ladi.

To‘rtinchi alomat. Sotish uchun tayyorlash. Odatda tovarlar sotish uchun tayyorlanadi. Agar o‘z foydalanishi uchun olingan mulkni ham bozorda sotish uchun alohida qo‘shimcha sarflar amalga oshirilsa, ushbu operatsiyadan ko‘zlangan asl maqsad undan foydalanish emas, balki bozorda sotish bo‘lganini ko‘rsatadi. Masalan, bino sotib olingan. Binoni biroz foydalangandan so‘ng qayta ta‘mirlashga kirishilgan. Mazkur holat kompaniyaning maqsadi aslida binoni qayta sotish maqsadi bo‘lganini ko‘rsatishi mumkin.

Beshinchi alomat. Realizatsiya uchun sabab bo‘lgan holat. Ba‘zan biror mulkni sotish zarurati kompaniyaga etishmayotgan pul mablag‘i yoki kreditorlarning talabi natijasida bo‘lishi mumkin. Bunday holatda foydalanish uchun olingan mulkni tovar realizatsiyasi sifatida qaralishi ehtimoli kam bo‘ladi.

Oltinchi alomat. Foyda ko‘rish istagi. Biror mulkni qayta sotish orqali foyda ko‘rish istagi borligi ushbu operatsiyani tovar realizatsiyasi sifatida qaralishiga sabab bo‘ladi.

Singapur davlatida foyda solig‘i bo‘yicha soliq imtiyozlarini ko‘rib chiqamiz. Ushbu imtiyozlar faqat ikkita bo‘lib, birinchisi yangi kompaniyalar uchun belgilangan miqdorgacha to‘liq soliqdan ozod qilish, ikkinchisi belgilangan miqdorgacha qisman soliqdan ozod qilish hisoblanadi.

To‘liq soliqdan ozod qilish imtiyozi

Tadbirkorlikni rivojlantirish va mahalliy kompaniyalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida yangi tashkil etilgan kompaniyalar uchun ketma-ket 3 yil davomida imtiyoz beriladi. Bunda yangi tashkil etilgan kompaniya deganda Singapurda tashkil etilgan, Singapur rezidenti bo‘lgan va aksiyadorlari 20 kishidan oshmaydigan



jismoniy shaxslardan iborat bo‘lgan kompaniyalar tushuniladi. Bunday kompaniyalar uchun soliq solinadigan daromad summasi quyidagi summaga kamaytiriladi:

Dastlabki 100 000 dollarga teng soliq solinadigan daromadning 75%i soliq solishdan ozod qilinadi;

Keyingi 100 000 dollarga teng soliq solinadigan daromadning 50%i soliq solishdan ozod qilinadi;

Qisman soliqlardan ozod qilish imtiyozlari

Barcha kompaniyalar qisman soliqlardan ozod qilish imtiyozidan foydalanishi mumkin. Ushbu imtiyoz yuqoridagi imtiyoz bilan bir vaqtda qo‘llanmaydi. Ushbu imtiyoz summasi soliq solinadigan daromad summasini quyidagilar summasiga kamaytiriladi:

Dastlabki 10 000 dollarga teng soliq solinadigan daromadning 75%i soliq solishdan ozod qilinadi;

Keyingi 190 000 dollarga teng soliq solinadigan daromadning 50%i soliq solishdan ozod qilinadi;

Xulosa.

Singapurning foyda solig‘i tizimi qulayroq va raqobatbardosh bo‘lib, past soliq stavkalari, soliq engilliklari va xalqaro soliq siyosatining kuchliligi bilan ajralib turadi. Yangi kompaniyalar va global biznes uchun Singapurda soliqqa tortish nisbatan engilroq. O‘zbekiston esa foyda soliq stavkasini pasaytirib, ayrim tarmoqlar uchun rag‘batlar yaratmoqda. Singapur va O‘zbekistonning foyda solig‘i tizimlari orasida ayrim o‘xshashliklar mavjud, lekin ular turli soliq siyosatlari va iqtisodiy sharoitlar asosida tashkil etilgan. Singapurda dividendlarga ikki martalik soliq solishdan qochish maqsadida, korporatsiyalar tomonidan berilgan dividendlar daromad solig‘iga tortilmaydi. O‘zbekistonda ham oxirgi yillarda bu borada o‘xshash siyosat mavjud, ya‘ni ayrim holatlarda dividendlar soliqlardan ozod qilingan. Singapurda soliq qonunchiligi juda soddalashtirilgan va shaffof bo‘lib, tadbirkorlar va investorlar uchun tushunarli. O‘zbekiston ham soliq tizimini soddalashtirish orqali korxonalar uchun ortiqcha byurokratik to‘siqlarni kamaytirib kelmoqda.



Adabiyotlar.

1. “The Ideal Tax System”, Social Research.
2. Nicodeme, Gaetan, Corporate Income tax and Economic Distortion.
2008
3. J. Mintz, H. Tulkens Commodity tax competition between member
states of a federation. Journal of public economics.
4. Налоговый учет и отчетность коммерческих
предприятий: учеб. Пособие/ Е.Б.Шувалова, С.В.Басов, Л.А.Бутенко
– М, 2014



Research Science and Innovation House

